

4/2022,
iyul-avgust
(№ 00060)



SAYOHAT XARAJATLARI USULIDAN FOYDALANIB “ZARAFSHON MILLIY BOG‘I” POTENSIALINI IQTISODIY BAHOLASH

Abduraxmanova Aqida Fayzulla qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali tayanch doktoranti, Samarqand, O‘zbekiston. aqida_abdurakhmanova@yahoo.com

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss4/a33

Annotatsiya

Ekoturizm hozirgi kunda dunyo iqtisodchilari tomonidan juda katta qiziqishga ega bo‘layotgan sohalardan biriga aylanib ulgurdi. Shuning uchun bu sohani o‘rganishda bir qancha usullardan foydalanilmoqda. Shundan eng oson va keng qo‘llanilayotgan usul bu “Travel cost” ya’ni sayohat xarajatlar usulidir. Ushbu maqolada mazkur usulning qo‘lanish doirasi, nima uchun ushbu usuldan foydalanish lozimligi, hamda ushbu usulning avzalliklari va “Zarafshon milliy bog‘i” ob’ekti misolida tahlillari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: ekoturizm, sayohat, sayohat xarajatlari, travel cost metodi, maskan, ekotizim, usul.

Аннотация

Экотуризм стал одним из направлений, представляющих большой интерес для экономистов всего мира. Поэтому в исследовании этой области используется ряд методов. Самым простым и широко используемым методом является метод «Travel cost». В данной статье дана область применения этого метода, почему необходимо использовать этот метод, а также преимущества этого метода и анализ объекта «Зарафшанский национальный парк».

Ключевые слова: экотуризм, путешествие, путевые расходы, путевой метод, место, экосистема, метод.

Abstract

Ecotourism has become one of the areas of great interest to economists around the world. Therefore, a number of methods are used in the study of this area. The simplest and most widely used method is the "Travel cost" method. This article gives the scope of this method, why it is necessary to use this method, as well as the advantages of this method and the analysis of the Zarafshan National Park object.

Key words: ecotourism, travel, travel expenses, travel method, place, ecosystem, method.

Kirish

Jahonda olimlar tomonidan ekologik turizmni rivojlantirishning uslubiy asoslarini takomillashtirish, rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik turizmning me‘yoriy-huquqiy asoslarini ishlab chiqish va

takomillashtirish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu jarayonda turizmning atrof-muhitga ta'sirini aniqlash, tabiat va turizm o'rtasidagi muvozanatni saqlash, ekoturizmni rivojlantirish modelini ishlab chiqish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda milliy iqtisodiyotdagi ekologik turizmning ulushi va ekoturizmning hududlarni iqtisodiy rivojlanishdagi samarasini aniqlash muhim masalalar qatoriga kiritilgan. Hududlardagi tabiiy maskanlardan rekreatsion va dam olish maqsadlarida foydalanishda atrof muhit sofligi va iqtisodiy samara o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud bo'lib, ular o'rtasidagi muvozanatni saqlashda boshqaruvchilar siyosiy, ma'muriy va iqtisodiy qarorlar qabul qilishi lozim bo'ladi. Bunday boshqaruv qarorlarini qabul qilishda atrof muhit sofligi va iqtisodiy samara o'rtasidagi o'zaro almashinish qiymatini baholash zaruriyati paydo bo'ladi.

Ekoturizm ob'ektlarini baholash hozirgi kunda investitsion loyihalarda, ekoturizm ob'ektlarini ijaraga berishda, ekologik ob'ektlarga zarar yetkazilgan vaqtda sud ekspertiza xulosasini chiqarishda juda ham ahamiyatli hisoblanadi.

Bu sohada ham o'ziga xos muammolar va qiyinchiliklar mavjud va bular quyidagilar:

- Tabiat maskanlaridan turistik maqsadlarda foydalanish yetarli darajada tartibga olinmaganligi va buning natijasida ularning yemirilishi;
- Ekologik turizmni rivojlantirishda ekologik turizm maskanlariga bo'yicha investitsion loyihalarda tabiiy ob'ektlarning bahosi hisobga olinmayotganligi natijasida foydalanuvchilar va tassavuf etuvchilar tomonidan ularni asrab avaylanmayotganligi;
- Ekoturizmni rivojlantirishda kompleks yondashuv amalga oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarining ishlab chiqilmaganligi.

Shu nuqtai nazardan biz ekoturizm ob'ektlarining qiymatini baholashning bir qancha usullarini o'rganib tahlil qilib chiqdik.

Tadqiqotning maqsadi esa Samarqand viloyatida ekoturizmni rivojlantirishda xalqaro ilg'or tajribalardan foydalanish, tabiat maskanlarida, jumladan, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda ekoturizmni samarali tashkil qilish mexanizmlarini takomillashtirish va mahalliy sharoitlarga moslashtirilgan iqtisodiy baholash usullari, hisoblash formulalarini tavsiya etishdir.

Tadqiqotning vazifalari esa quyidagilar:

- ekologik turizm rivojlanishining tendensiyalari, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va ob'ektiv zarurligini asoslash;
- ekoturizm ob'ektlarini iqtisodiy baholash usullarini takomillashtirish, mahalliy sharoitlarga moslashtirilgan usullar tizimini ishlab chiqish;
- Samarqandda turizmning hozirgi holatini tahlil qilish, mintaqada ekologik turizmning resurs salohiyatini baholash;
- baholashda tanlab olingan metodni amaliy hisob kitoblarini keltirish.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Ma'lum bir diqqatga sazovor joyning qiymatini hisoblash muammosini hal qilishning bir usuli - uning tabiatidan qat'iy nazar va kirish to'lovi olinadimi yoki yo'qligidan qat'iy nazar, tashrif buyuruvchining keladigan joyidan to tashrif buyuruvchi ob'ektiga sayohat narxini bog'lashdir.

Bu yondashuv birinchi marta Buyuk Britaniya milliy bog'lar xizmatiga Hotellingning "Ommaviy dam olish iqtisodiyoti" maqolasida taklif qilingan (1947).[5] Parklar xizmati

kunning bir qancha yetakchi iqtisodchilariga milliy bog‘lar mavjudligini baholash mumkin bo‘lgan usullarni ishlab chiqishni topshirdi. Olingan barcha javoblardan faqat Hotellingning javoblari to‘g‘ri iqtisodiy tamoyillarga asoslangan deb topiladi va amaliyotga joriy qilishda foydalaniladi. [1]

Metodologiya keyinchalik Clawson va Knetsch (1966) tomonidan Ochiq havoda dam olish iqtisodiyoti maqolasida ishlab chiqilgan[3]. Ushbu maqolada ochiq havoda dam olish maskanlariga tashriflar va ularning xarajatlari tor miqyosda tahlil qilinadi. Maqolada ko‘rsatkichlar umumiy tarzda olinadi aynan bir ekoturizm ob‘ekti tahlili keltirilmaydi.

Mikołaj Czajkowski, Marek Giergiczny, Jakub Kronenberg, Jeffrey Englin tomonidan “Sayohat vaqtini tejashning iste‘molchiga xos qiymatlari bilan individual sayohat xarajatlari usuli” deb nomlangan maqolasida ham sayohat xarajatlari metodini aynan bitta iste‘molchi nuqtai nazaridan ekonometrik tahlil qilingan. Bunda STATA dasturidan ham keng foydalanilgan.[7]

Christopher M. Fleming tomonidan ham “Veb-so‘rovlar, tanlab olish va sayohat xarajatlari usuli” maqolasida so‘rov metodologiyasidagi so‘nggi yangilik veb-so‘rovlarning paydo bo‘lishi bo‘ldi. Bu so‘rov turi ko‘gina boshqa yo‘nalishlarda mashhur bo‘lsa-da, bugungi kunga qadar juda kam sonli bozori bo‘lmagan baholash tadqiqotlari internetdan so‘rov vositasi sifatida foydalangan. Bozor bahosi bo‘yicha amaliyotchilarning asosiy tashvishi veb-so‘rovlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin bo‘lgan tanlamaning noto‘g‘riligi va bu baholash baholariga ta‘sir qilishi mumkinligidir. Ushbu maqolada biri oddiy pochta orqali, ikkinchisi internet orqali o‘tkazilgan sayohat xarajatlari bo‘yicha so‘rovnoma tadqiqot natijalari taqqoslanadi.[4]

Suv resurslari kengashi 1979 yilda Qo‘shma Shtatlardagi loyihalarni baholashda ushbu yondashuvdan foydalanishni tavsiya qildi. O‘shandan beri ushbu usul yordamida atrof-muhit resurslarini baholash bo‘yicha ko‘plab ishlar nashr etildi.¹

Hozirgi kunda eng ko‘p va keng miqyosda bu usulni misollari, ta‘riflari, hisoblash usullari bo‘yicha to‘liq ma‘lumotni https://www.ecosystemvaluation.org/travel_costs.htm va <https://www.cbabuilder.co.uk/CBABuilder.html> internet saytlari orqali olish mumkin.

Biz o‘rgangan va tadqiqotimida qo‘llagan metod aynan bir ob‘ektni so‘rovnoma orqali va statistik tahlillar orqali “Travel cost” metodda foydalanish qiymatini, hamda kirish narxini maksimal qiymatini aniqlashga qaratilgan hisoblanadi. Tadqiqotlarimiz davomida “Zarafshon milliy bog‘i” ni tahlilini amalga oshirdik.

Tadqiqot metodologiyasi

Agarda ikki joy o‘rtasida faqatgina bir xususiyat farqlansa, shunda ko‘p joylar modellari o‘sha hudud qiymatini aniqlash uchun qo‘llaniladi. Holbuki, amaliyotda farqlanuvchi xususiyatlar bir nechtani tashkil qiladi. “Alohida tanlov metodi” modeli hudud xarakteristikasi sifatidagi tashrif buyuruvchining shaxsiy joy tanlovidir. Odamlar joyning ko‘plab xususiyatlari jamlanmasiga tayangan holda tanlovni amalga oshiradilar.

Ba‘zilar hudud xususiyatlari qiymatlarini kishilarning o‘sha hududga sayohat uchun to‘lashga tayyor bo‘lgan mablag‘lari orqali belgilaydilar. Bu kabi modellar Tavakkal Naflilikni Maksimallashtirish (TNM) modellari orqali baholanadi. Bunga ko‘ra, iste‘molchilar dam olish uchun hududlarni daromad funksiyasiga asosan tanlashadi

¹ In Spain, applications of the approach may be seen in Campos et al.(1996), Garrido et al. (1996), Loureiro and Albiac (1994), Pérez y Pérez et al. (1996), and Riera et al. (1994).

(tanlangan va tanlanmagan hududlar narxlari va tanlangan va tanlanmagan hududlar xususiyatlari kesishadi). Izlanuvchilar cheklangan tanlov imkoniyati (hududlarning munosib o‘rinbosarlari mavjud bo‘lsa), iqtisodiy nomuvofiq shartlar tuzilishi, iste‘molchilarning turli tajribaga asoslanmagan tanlovlari tiklanishi (afzalliklar) va boshqa bir qator omillarga tayangan holda ko‘plab maxsus qarorlar qabul qiladilar.

Boshqa muhim muammolardan biri sayohatlarning ko‘p maqsadda tashkil qilinganligidir. Ba‘zi insonlar ayni bir dam olish maskaniga borishni maqsad qiladilar. Ko‘p maqsadli sayohatlarda esa individual dam olish maskani sayohat qiymatining faqat bir qismini tashkil etadi xolos. Agar tahli ko‘p maqsadli sayohat ustida olib borilayotgan bo‘lsa bir dam olish maskanining qiymatini aniqlash qiyinchilik tug‘diradi. Har bir joy yoki maqsadning alohida qiymatini aniqlash, afsuski, shartli bo‘lishi mumkin. Sayohat xarajatlari modellarining ko‘pchiligi asosan ko‘plab ta‘sirilar natijasidagi tahlillar bilan hisoblashadilar. Izlanuvchilar sayohat xarajatlari tarkibiga kiruvchi vaqtning muqobil qiymati va ko‘p maqsadli sayohat uchun ajratilgan mablag‘ning qaysi qismi individual (ma‘lum) hudud uchun ekanligi orasida oldindan aytilishi mumkin bo‘lgan ma‘lumotlar zanjirini tuzib oladilar. Shundan so‘ng, ushbu ma‘lumotlar bilan dam olish maskaniga ajratilgan mablag‘ qay darajada o‘zgarganligi haqida kuzatuv olib borishlari mumkin.

Hududda rekreatsion holatni baholashda Sayohat bahosi metodidan foydalandi. Bu metod quyidagi natijalardan iqtisodiy foydani baholashda foydalaniladi:

- rekreatsion hududlarga kirish;
- rekreatsion hududlardan voz kechishni inkor qilish;
- yangi rekreatsion hududlar qo‘shish;
- rekreatsion hududlarda atrof muhit sifatini yaxshilash.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 30 sentabrdagi №828 sonli “Samarqand viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarorida keltirilgandek Samarqand viloyatida ekoturizm va rekreatsion turizmni rivojlantirish bo‘yicha berilgan topshiriqlardan kelib chiqqan holda hamda qarorda belgilangan qishloq joylarda ayniqsa “Omonqo‘ton”, “Qoratepa”, “Yuqori Tersak”, “Tersak”, “O‘rta Tersak”, “Oqsoy” qishloqlarida ekoturistik majmualarm umumiy ovqatlanish shahobchalari va boshqalarni yaratish orqali ekologik turizmni rivojlantirish borasidagi chora tadbirlardan kelib chiqqan holda, ekoturizm obe‘ktlarini o‘rganish, ularning holatini baholash, istiqbollarini bashoratlash bo‘yicha ishlarni amalga oshirdik. Biz o‘z ilmiy tadqiqotimizga obe‘ktlar sifatida Zarafshon milliy bog‘ini tahlil qildik.

Tahlil va natijalar

Zarafshon milliy bog‘i: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasinig 2018 yil 7-fevraldagi №-82 sonli qaroriga asosan “Zarafshon milliy tabiat bog‘i”i maqomi berildi. Zarafshon miliy tabiat bog‘ining umumiy yer maydoni 2426.4 ga bo‘lib, hozirda bu hudud 3ta bo‘limga ajratildi:

- Qo‘riqxon bo‘limi, maydoni - 1772 ga,
- Xo‘jalik bo‘limi, maydoni - 302 ga,
- Rekreatsiya bo‘limi, maydoni - 352.4 ga

Qo‘riqxon hududi Zarafshon daryosining o‘ng qirg‘og‘i bo‘ylab Chopan-Ota balandligidan 46 kilometr ga cho‘zilgan. Hozirda Zarafshon davlat qo‘riqxonasi Bulung‘ur va Jomboy viloyatlarini egallagan. Janubdan qo‘riqxon Tojikiston bilan chegaradosh.

Milliy bog' iqlimi o'zgaruvchan, sutka va yil mobaynida havo harorati hamda atmosfera bosimi o'zgarib turadi. Havoning o'rtacha harorati 27,4 gradusga teng. Yillik o'rtacha yog'in miqdori 400 mm.ni tashkil etadi.

Dastlab Zarafshon vodiysi to'qay massivi bo'lib, kengligi bir necha kilometr bo'lgan, o'tib bo'lmaydigan chakalakzorlar, o'ziga xos o'simlik va hayvonot dunyosi bor edi. Insonning antropogen ta'siri tabiiy komplekslarning o'zgarishiga olib keldi. O'rmon massivlari qirib tashlandi, ozod qilingan yerlar madaniy o'simliklar ekinlari ostida haydaldi - madaniy landshaftlar yaratildi. Bu o'zgarishlarning barchasi o'simlik va hayvonot dunyosiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ko'pchilik o'zlarining avvalgi joylarini tark etib, o'zlari uchun saqlanib qolgan yerlarni topdilar yoki abadiy g'oyib bo'ldi.

O'zbekiston Zarafshon davlat qo'riqxonasini tashkil etish sabablaridan biri qirg'ovulning mahalliy kenja turi bo'lgan Zarafshon qirg'ovulini muhofaza qilish edi. Bu qushlar ming yillar davomida Zarafshon tekisligida yashab kelgan, ammo 20-asr oxiriga kelib ularning soni sezilarli darajada kamaydi.

Zarafshon davlat vodiy-to'qay qo'riqxonasining butun hududi daryo tubiga va uning oqimi bo'ylab egilgan tekislikdir. Hududning tekisligini eski va mavjud irmoqlarning kanallari, daryo vodiylari, kanallar va to'g'onlar buzadi.

Past tekisliklar va Zarafshon kanalining mezorelifi daryoning aylanib yuruvchi kanallari tomonidan yaratilgan kuchli parchalanish bilan tavsiflanadi, ularning to'kilishi Zarafshon qo'riqxonasining katta qismining relefini tekislaydi.

Bu hududning hayvonot olami juda xilma-xil. Zarafshon milliy tabiat bog'i o'z oldiga hududda yo'qolib borayotgan endemik qush turi Zarafshon qirg'ovulini muhofaza qilish va ko'paytirish, qimmatbaho dorivor o'simlik chakanda (oblepixa) ni ko'paytirish, hududning tabiiy landshaftini saqlash va qayta tiklash hamda rekreatsiya hududiga mahalliy aholi va chet ellik sayyohlarni jalb etishni maqsad qilgan. Shuningdek, milliy bog'da yovvoyi hayvon va o'simliklarning genetik fondini saqlab qolish, tabiiy jarayonlarning kechishi va monitoringini yuritish, tabiat muhofazasi ilmiy asoslarini ishlab chiqish kabi vazifalarni bajaradi.

Hozirgi kunda milliy bog' hududida quyidagi oilalarga mansub hayvon turlari mavjud:

Sutemizuvchilar -24 ta, qushlar-218 ta, sudralib yuruvchilar-10 ta, baliqlar-18 ta, molyuskalar-26 ta, amfibiyalar-2 ta, hashorotlarning-88 ta. Ushbu hayvonlardan Zarafshon qirg'ovuli, O'rta Osiyo qunduzi va Buxoro xonguli bug'usi O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga hamda Xalqaro "Qizil kitobga" kiritilgan.

Zarafshon milliy tabiat bog'ida quyidagi oilalarga mansub 300dan ortiq o'simlik turlari aniqlangan:

Atirguldoshlar-16 ta, g'alladoshlar-48 ta, murakkabguldoshlar-40 ta, dukkakdoshlar-23 ta, karamdoshlar-20 ta, sigirquyruqdoshlar-12 ta turi aniqlangan bo'lib, ulardan Kesselring savrinjoni va Oshlovchi sumax O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobiga" kiritilgan. Bundan tashqari hududda manzarali o'simliklarning 20 ta, texnik o'simliklarning 23 ta, dorivor o'simliklarning 80 dan ziyod turlari kuzatishlar natijasida aniqlangan.

Zarafshon milliy tabiat bog'ining yana bir faxri 14 gektaga yaqin qadimiy relik hisoblangan turang'il daraxtining to'p holda saqlanib qolganligidir. Uning tangachasimon

barglari bahor quyoshida jilolanib, kuz faslida tillarang tusga kirib o'zgacha manzara kashf etadi.


Ekoturizm bo'yicha ekomashrutlar tashkil etilgan:

1 Marshrut: Zarafshon qirg'ovuli- masofasi 1,5 km. Bu marshrutda sayyohlar Zarafshon qirg'ovulini tomosha qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

2. Marshrut. Buxoro bug'usi- masofasi 3 km. Ushbu marshrutda sayyohlar Buxoro bug'usini tomosha qilishi hamda milliy bog' tabiatini, o'simlik va hayvonot olamini kuzatishi mumkin.

3. Marshrut. Dorivor chakanda- masofasi 5km. Ushbu marshrutda sayyohat qilish orqali hamda milliy bog' tabiatini, o'simlik va hayvonot olamini, turli xil turdagi qushlarni va dorivor chakandazorlarni kuzatish imkoniga ega bo'ladilar.²

Mintaqaviy sayohat xarajatlari usulidan foydalangan holda tadqiqotchi potentsial tashrif buyuruvchilar yoki foydalanuvchilarni emas, balki joy yoki aktivning haqiqiy tashrif buyuruvchilari yoki foydalanuvchilarini o'rganish orqali aktivning qiymatini baholashi mumkin. Tahlil darajasi aktivning joylashgan joyiga nisbatan odamlar yashaydigan hududlarga qaratilgan. Tadqiqotimiz davomida dam olish maskaniga tashrif buyuruvchilarning qaysi hududdan tashrif buyurishiga ko'ra masofani hisobga olgan holda 5 ta hududlarga bo'lib oldik.



1-rasm: Ekoturizm ob'ektlarni hududlarga ajratish.

A hududda o'rtacha sayohat vaqti yarim soat, masofa esa 30 kmgacha bo'lgan hududlar. B hududda o'rtacha sayohat vaqti 1 soat va masofa 60 km. C hududda o'rtacha sayohat vaqti taxminan 1,5 soat va masofa 90 km. D hududda o'rtacha sayohat vaqti 2 soat va masofa 120 km. E hududda o'rtacha sayohat vaqti 3,5 soat va masofa 400 kmgacha.

Sayohat xarajatlari metodidan foydalanayotganimizda o'rtacha soatlik ish haqi stavkasini, shuningdek, avtoulovning marjinal ekspluatatsiya xarajatlarini aniq o'lchashni ta'minlashi muhimdir. Shuni inobatga olgan holda 6 ta ob'ektda o'tkazgan so'rovnomalarmiz natijasiga ko'ra tashrif buyuruvchilarning transport xarajatlari hisob

kitoblarini amalga oshirdik va 1 km uchun o‘rtacha har bir sayohatchi 505 so‘mdan xarajat qilishini aniqladik

Endi aktivning umumiy qiymatini olish uchun har bir hudud uchun ekoturizm ob’ektlarining qiymatini hisoblashi mumkin. Bir tashrif uchun aktivning qiymatini (V) hisoblash uchun endi quyidagi oddiy tenglamadan foydalanamiz:

$$V = ((T \times w) + ((D \times v) + Ca) \times Va$$

Qayerda,

T = sayohat vaqti (soatlarda)

w = o‘rtacha ish haqi darajasi (£/soat)

D = masofa (km da)

v = avtomobilning marjinal foydalanish xarajatlari

Ca = aktivga kirish qiymati

Va = yiliga o‘rtacha tashriflar soni

Shunda bizning obe’ktimizning qiymati quyidagicha bo‘ladi.

1-jadval

Zarafshon milliy bog‘iga tashrif buyurishni sayohat xarajatlari bo‘yicha qiymatini aniqlash

Tashrif joyi	Sayohat vaqti (Soat)	w (1 soatlik ish haqqi) (so‘m)	masofa	Transport xarajatlari (so‘m)	Kirish narxi	O‘rtacha 1 yildagi tashriflar soni	V (so‘m)
A hudud	0,5	33575	30	505	13000	4704	132434387,5
B hudud	1	9720	60	505	13000	3436	135798520
Jami:						7840	26232907,5

**muallif tomonidan o‘tkazilgan so‘rovnomaga natijasiga ko‘ra tahlil qilingan*

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki Zarafshon milliy bog‘iga tashrif buyuruvchilar 2 ta A va B hududni tashkil etar ekan. Umumiy 2 ta hududdan tashrif buyuruvchilar 1 yil davomida bog‘ni ekoturistik tashrif uchun 26232907,5 so‘mga baholaydi va 1 yillik qiymatini keltirib chiqaradi. Endi biz ekoturizm maskaniga o‘rnatiladigan bahoni (“kirish chiptasi”) belgilashimiz mumkin bo‘ladi bu umumiy hisobda 34213,13 so‘mgacha etib belgilanishi kerak.

Sayohat xarajatlari modeli boshqa keng qo‘llaniluvchi qiymat metodlari orasida dam olishga bo‘lgan talabni va resurs qulayliklarining jami qiymatini baholovchi muhim va juda foydali vosita bo‘lishga erishdi.

Ammo, bu metodlar bo‘yicha ba’zi noaniqliklar mavjud. Boshqa statistik modellar singari bular ham ba’zi o‘ta muhim ma’lumotlarni o‘tkazib yuborishdagi kamchilik tufayli yakuniy natijada salbiy ta’sirlar kuzatilishi mumkin. Boshqa chalkashlik sayohat xarajatlari yoki uning bir qismini kuzatib bo‘lmas (bilinmas) darajasiga borib taqaladi. Hali o‘rganilmagan xarajatardan biri sayohat vaqtining muqobil qiymatidir. Ba’zi

mualliflar vaqtni qiymatini baholovchi to'lovni aniqlash taklifini kiritdilar, ammo kishilar kamroq qiymatdagi sayohatlarni xush ko'rishlariga empirik asoslar mavjud. Izlanuvchilar shuningdek, dam olish maskanlaridagi sarflangan vaqt qiymatini qanday baholash to'g'risida ham muzokara olib borishlari lozim.

Sayohat xarajatlari usulini ekoturizm ob'ektlarini baholash va qiymatini chiqarish uchun keng qo'llash mumkin. O'rganishlarimiz natijasida Respublikamizdagi ekoturizm ob'ektlarining qiymatini yoki bahosini chiqarishda foydalanishni tavsiya etamiz. Sababi baholash usuli qulay va kamxarj hisoblanadi.

Xulosa va takliflar

Ekoturizmni rivojlanishi ekologik maskanlar joylashgan qishloq hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. Xizmat ko'rsatish sektorining rivojlanishi tadbirkorlik sub'ektlarini soni va ko'lamini kengayishiga, bu orqali ayollar va yoshlar bandligi hamda daromadlarini oshishiga sabab bo'ladi. Yangidan barpo etiladigan umumiy ovqatlanish ob'ektlari, ko'ngilochar maskanlar aholi punktlarini ko'rkamligini oshirish bilan birga, mahalliy aholi uchun ham ko'rsatilayotgan xizmatlar ko'lamini kengaytirib, bularning barchasi birgalikda qishloq hududlarida kambag'allikni kamaytirishga va farovonlikni oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ekologik maskanlardan haddan ortiq foydalanish ularning yemirilishiga olib kelib, ushbu maskanlarga kelayotgan turistlar oqimini maqbullashtirishning iqtisodiy-tashkiliy asoslarini ishlab chiqish talab etiladi. Undan tashqari, insonlar foydalanishida bo'lgan ekologik maskanlar tabiiy tiklanish salohiyatiga qo'shimcha ravishda undan keladigan daromad hisobiga doimiy ravishda tozalash va tiklash tadbirlarini olib borishni talab qiladi. Ekoturizm maskanlaridan foydalanish uchun o'rnatiladigan bahoni ("kirish chiptasi") belgilash usullarini takomillashtirish orqali bir tomondan, ularni holatini qayta tiklanish darajasida saqlab turishga imkon beradigan foydalanuvchilar sonining maksimum miqdoridan oshmasligiga, ikkinchi tomondan, ushbu maskandan keladigan pul tushumini maksimalashtirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ana Bedate Centeno, Luis César Herrero Prietobedate "The travel cost method applied to the valuation of the historic and cultural heritage of the castile-león region of Spain
2. Bell, Frederick, and Vernon Leeworthy. 'Recreational Demand by Tourists for Saltwater Beach Days,' in *Journal of Environmental Economics and Management*. 18: 189-205 (1990)
3. Clawson, M. and Knestch, J.L. (1966), *Economics of Outdoor Recreation*, Johns
4. Christopher M. Fleming *Web Surveys, Sample Bias and the Travel Cost Method*, Australia, 2015
5. Hopkins University Press for Resources for the Future, Washington.
6. Hotelling, H. (1947), *The Economics of Public Recreation*. The Prewitt Report, National Parks Service, Washington

7. Mikołaj Czajkowski, Marek Giergiczny, Jakub Kronenberg, Jeffrey Englin “The Individual Travel Cost Method with Consumer-Specific Values of Travel Time Savings” *Environmental and Resource Economics* (2019) 74:961–984
8. Shaw, Douglass. ‘Recreational Demand by Tourists for Saltwater Beach Days: Comment,’ in *Journal of Environmental Economics and Management*. 20: 284-289 (1991)
9. Tuxliyev I. S. *Turizm asoslari*. – Samarqand: - Fan, 2010.
10. Tuxliyev I.S., R.Hayitboyev, N.E.Ibodullayev, R.S.Amriddinova *Turizm asoslari – Toshkent.*: - Fan va texnologiya. 2014.
11. Тураев Б.Х. Туристско-рекреационный потенциал Самаркандской области. // *Рынок, деньги и кредит*. - Ташкент, 2004. -№10. -51-54 с.
12. Hoshimov M. *O‘zbekiston ekologik turizmi*.- Samarqand: Zarafshon, 2009
13. http://www.ecosystemvaluation.org/travel_costs.htm
14. <https://www.cbabuilder.co.uk/CBABuilder.html>
15. Zarafshon milliy bog‘ hisobot ma‘lumotlari